

**O‘ZBEKISTON RESPUBLLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida
UDK: _____

Qodirov Iskandar Alisher O‘G‘LI

**AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION
JOZIBADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.07–“Moliya, pul muomalasi va kredit”

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari
doktori, professor M.I.Almardanov**

Toshkent-2025

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB	AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY VA FUNDAMENTAL ASOSLARI
1.1.	Aksiyadorlik jamiyatlarining mohiyati, xususiyatlari va mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rni..... 13
1.2.	Aksiyadorlik jamiyatlari investitsion jozibadorligini oshirishning iqtisodiy mazmuni-mohiyati hamda ilmiy - nazariy asoslari..... 27
1.3.	Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini baholash yo‘llari..... 52
I bob bo‘yicha xulosa.....	66
II BOB	AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI.....
2.1.	O‘zbekistonda investitsiyalarni jalb qilish orqali investitsion jozibadorlikni oshirishning hozirgi kundagi holati tahlili..... 68
2.2.	Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini baholashning qiyosiy tahlili..... 89
2.3.	Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishni takomillashtirishning ekonometrik tahlili..... 105
II bob bo‘yicha xulosa.....	117
III BOB	AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDAGI MUAMMOLAR HAMDA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....
3.1.	Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishning xorij tajribasi..... 119
3.2.	Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishdagi mavjud muammolar..... 130
3.3.	Mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishni takomillashtirish imkoniyatlari..... 140
III bob bo‘yicha xulosa.....	145
Xulosa.....	148
Foydalanilgan adabiyotlar.....	155

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Global iqtisodiy inqiroz tendentsiyalari, savdo va geosiyosiy keskinliklar, strategik va ishlab chiqarish sohalariga ta'sir ko'rsatadigan sanoat siyosati va ta'minot zanjirlarini diversifikatsiya qilish bo'yicha korporatsiyalarning harakatlari xalqaro ishlab chiqarish va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar tarkibini o'zgartirmoqda. "Ushbu tendentsiyalar 2024-yilda xalqaro biznes va transchegaraviy investitsiyalar uchun global muhitga ta'siri ortib borishi jahon iqtisodiyotida YaIMning 2023-yilga nisbatan 0,1 foizga kamayishiga olib keldi. Shuningdek, 2023-yilda rivojlangan mamlakatlarga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi 9 foizga oshib, 464 milliard dollarni tashkil etdi. Biroq, so'nggi ikki yil ichida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning katta oqimi bo'lgan bir qator Yevropa mamlakatlarida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sezilarli o'zgarishi va salbiy amalga oshirilishi ushbu jarayonga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda"¹. Ushbu holat kapital qo'yilmalar iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining zamonaviy tizimi asosi ekanligini va investitsiya jozibadorlikini oshirish dunyoning barcha mamlakatlarida davlat siyosatining muhim elementi va asosiy vazifasiga aylanib borayotganini tasdiqlaydi.

Dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot institutlari aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishning eng muhim ilmiy yo'nalishlari sifatida investitsiya jozibadorlikka erishish shartlari va investitsiya resurslaridan foydalanishning asosiy usullarini aniqlash, dunyodagi investitsiya muhitini sezilarli darajada yaxshilashga qaratilgan investitsiya resurslari sifatini oshirishga o'tishning mavjud usullarini takomillashtirish va innovatsion usullar hamda uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishni taklif qilmoqdalar.

O'zbekiston iqtisodiyotining investitsiya jozibadorligini oshirishda 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni rivojlanish strategiyasida "mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va jozibadorligini oshirish, 2022-2026-yillarda 120 milliard AQSh dollari, shu jumladan 70 milliard dollar hajmdagi xorijiy investitsiyalarni jalb etish chora-tadbirlarini ko'rish"² ko'zda tutilgan. Shuningdek, O'zbekistonda hozirgi investitsiya resurslari bozorida investitsiyalar, shu jumladan xorijiy investitsiyalarning etishmasligining oldini olish, kapital qo'yilmalar manbalarini diversifikatsiyalash darajasini oshirish, investitsiya resurslarini jalb qilishda hududlarning yuqori tabaqalanishi, milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashga investitsiyalarni jalb qilish darajasini oshirish, mahalliy fond bozorining rivojlantirish kabi vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirilishini ta'minlash keyingi islohotlar va hududlarning investitsiya jozibadorlikini oshirishning maqbul usullarini izlash zarurligini tasdiqlaydi va dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va ahamiyatini belgilaydi.

¹ UNCTAD for foreign direct investment, gross domestic product and trade, and IMF for gross fixed capital formation. https://www.developmentaid.org/api/frontend/cms/file/2024/06/wir2024_en.pdf

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni <https://uza.uz/>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 21-iyuldagi PF-111-son “Ma‘muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 7-sentabrdagi PF-215-son “O‘zbekiston Respublikasining To‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar jamg‘armasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 15-oktabrdagi PF-606-son “Respublika hududlarida innovatsiya va investitsiya faoliyatini jadallashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”, 2018-yil 1-avgustdagi PF-5495-son “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-son “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2021-yil 30-dekabrda PQ-215-son “O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida”gi qarori va ushbu sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini asoslari, rivojlanish va transformatsiyalashning turli bosqichlarida uni shakllantirish va takomillashtirish tamoyillari tahlili A.Smit, P.Samuelson, A.Marshall, R.Solou, S.Djevons, E.Bem-Baverk, L.Valras va boshqa shu kabi klassik iqtisodchilarning asarlarida o‘z aksini topgan³.

Milliy iqtisodiyotda aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini

³ Шпинев Ю. С. Адам Смит об инвестициях// Право и государство: теория и практика. 2021. № 3 (95). С. 91-94. DOI 10.47643/1815-1337_2021_3_91; Самуэльсон П.А. Экономика: [Перевод]/ П. Самуэльсон. - М.: МГП «Алгон», 1992. - 331 с.: ил. ISBN 5-201-09971-8; Маршалл А. Принципы политической экономии/ А. Маршалл. - Москва: Директ-Медиа, 2012. - 2127 с. - Режим доступа: по подписке. - URL: <https://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=26824> - ISBN 978-5-4458-0020-0. - Текст: электронный; Солоу Р. М. Теория роста // Панорама экономической мысли конца XX столетия. Под ред. Д. Гринауэя, М. Блини, И. Стюарта. Пер. с англ. под ред. В. С. Автономова. Том 1. СПб.: Экономическая школа. 2002 - 342 с.; Джевонс Уильям Стэнли Теория политической экономии. - М.: Социум, 2021. - 247 с.; Bem-Baverk E. Капитал и процент. - М.: Социум, 2010. - 188 с.; Вальрас, Л. Элементы чистой политической экономии или Теория общественного богатства / Леон Вальрас; [Пер. на рус. яз. - И. Егоров, А. Белянин]. - Москва: Университет. б-ка: Экономика, 2000. - 421 с.

oshirishni takomillashtirishning turli jihatlarini yaqin xorijiy mamlakatlarning ko‘plab olimlarining tadqiqotlarida, xususan, S.Serikov, N.Laxmetkina, E.Safronova, I.Zinoveva, A.Rusavskaya, A.Petrenko, O.Ulturgasheva, A.Lavrenko, D.Profatilov, N.Kalugina, I.Grishina, A.Shaxnazarov, N.Royzman, E.Fedorova, L.Goncharenko, S.Filin, A.Yakushev, F.Akulinin, D.Kuzmishev va boshqalarning ishlarida aks ettirilgan⁴.

O‘zbekistondagi ilmiy adabiyotlarda aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini shakllantirish va baholash muammolari ham ko‘plab olimlar, xususan, D.G‘ozibekov, N.Karimov, N.Jumayev, F.Dodiyev, N.Kuziyeva, N.Xaydarov, Sh.Mustafaqulov, N.Hidirov, R.Saidov, E.Nosirov, R.Karlibayeva, O‘.Haydarov, Sh.Naimov va boshqalarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda⁵.

⁴ Сериков С.Г. Инвестиционный потенциал региона// Экономика и предпринимательство. № 3 (ч.2), 2015 г. <https://naukarus.com/investitsionnyy-potentsial-regiona>; Лакметкина Н.И. Инвестиционный потенциал - фундаментальное понятие инвестиционного процесса// Финансовая аналитика: проблемы и решения. 2011. №4. С.17-20. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/investitsionnyy-potentsial-fundamentalnoe-ponyatie-investitsionnogo-protsessa>; Сафронова Е.И., Зиновьева И.С. Роль инвестиционного потенциала в региональном развитии// Международный студенческий научный вестник. - 2015. - № 4 (часть 2). С. 301-303. URL: <https://eduherald.ru/ru/article/view?id=13518>; Русавская А.В. Инвестиции и инвестиционный потенциал региона// УЭК. 2012. №1 (37). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/investitsii-i-investitsionnyy-potentsial-regiona>; А.В.Петренко Инвестиционный потенциал региона как экономическая категория// Материалы VI Международной студенческой научной конференции «Студенческий научный форум» 2014. URL: <https://scienceforum.ru/2014/article/2014006000>; Ултургашева О.Г., Лавренко А.В., Профатилев Д.А. Экономические проблемы регионов и отраслевых комплексов// Проблемы современной экономики, № 1 (37), 2011. www.m-economy.ru; Калугина Н.К. Сущность понятий «инвестиционная привлекательность» и «инвестиционный потенциал» региона// Гуманитарные научные исследования. 2018. № 10 [Электронный ресурс]. URL: <https://human.snauka.ru/2018/10/25249>; Гришина И., Шахназаров А., Ройзман Н. Комплексная оценка инвестиционной привлекательности и инвестиционной активности российских регионов: методика определения и анализ взаимосвязей // Инвестиции в России. 2011. №4. - 253 с.; Федорова Е.А. Факторы, влияющие на приток иностранных инвестиций в регионы// Региональная экономика: теория и практика. 2014. №43. С. 51-62. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/factory-vliyaushchie-na-pritok-inostrannyh-investitsiy-v-regiony> Гончаренко Л.П., Филин С.А., Якушев А.Ж., Акулинин Ф.В., Кузьмищев Д.А. Реализация инвестиционного потенциала регионов посредством повышения инвестиционной привлекательности и вовлечения бизнеса в инвестиционный процесс // Региональная экономика: теория и практика. 2013. №28. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/realizatsiya-investitsionnogo-potentsiala-regionov-posredstvom-povysheniya-investitsionnoy-privlekatelnosti-i-vovlecheniya-biznesa>

⁵ G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari - T.:2002. i.f.d. diss. avtoref. 11-14 b. Karimov N.G‘.Iqtisodiy integratsiyalashuv sharoitida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmlarini joriy etish masalalari. – T.: Fan va texnologiya, 2007. – 240 b., Jumayev N.X. Kambag‘allik: Daromad tengsizligimi yoki ta‘lim olishga e‘tiborsizlik. Maqola. -Xalq so‘zi gazetasi, 2020-yil 25 iyun. Dodiyev F.O‘. Investitsion faoliyatini moliyaviy rag‘batlantirish: iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. –Toshkent. 1998.-22 b.; Kuziyeva N.R. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag‘batlantirishning moliyakredit mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T., 2008; Haydarov N.H. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari (xorijiy investitsiyali korxonalar misolida): iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2003.-22 b.; Mustafakulov Sh.I. O‘zbekistonda investitsion muhit jozibadorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. i.f.d. (DSc). diss. avtoreferati. T., 2017.; Khidirov, N. G. (2021). Mechanisms and

Shu bilan birga, ushbu sohada milliy va xorijiy iqtisodchi olimlarining ko‘plab asarlari mavjudligiga qaramay, aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari qo‘shimcha tadqiqotlarni talab qiladi.

Yuqorida nomlari zikr etilgan olimlarning ilmiy ishlari va izlanishlarida aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishning ayrim jihatlari tadqiq etilgan bo‘lsada, aynan aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya jozibadorligini oshirishni takomillashtirish yo‘llari alohida tadqiqot ob‘ekti sifatida ko‘rilmagan bo‘lib, ushbu holat ham tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashning ilmiy-uslubiy asoslari va metodologiyasini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mamlakatda aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini mazmuni va ahamiyatining ilmiy-nazariy asoslarini va o‘shirish omillarining xususiyatlarini hamda mamlakatning investitsion jozibadorligini baholash usullarini tizimlashtirish;

hudud iqtisodiyotida investitsion jozibadorligini oshirish bo‘yicha xorijiy tajribani umumlashtirish;

O‘zbekiston hududlarida investitsiya resurslaridan foydalanishning hozirgi holati tahlili;

O‘zbekistonda mavjud aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini shakllantirish va rivojlantirish omillari va investitsion jozibadorligiga ta’sir etuvchi omillarni baholash hamda O‘zbekiston hududlarida uni rivojlanishining indikativ ko‘rsatkichlari prognozini ishlab chiqish;

aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning eng muhim yo‘nalishlarini aniqlash va hududlarda investitsiya jozibadorligining o‘shirishini ta’minlash bo‘yicha chora-

methods of financing enterprise investment projects. Journal of Economics, Finance and Management Studies, 4(05), 475-482. Saidov R.B. O‘zbekiston Respublikasi uy xo‘jaliklarida investitsiyalashni takomillashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2011.-18 b.; G‘ozibekov D.G‘., Nosirov E.I. O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola. – T.: Iqtisod-moliya, 2007. – 92 b. Karlibaeva, R., Kurbonov, K., Bekimbetova, G., & Shaturaev, J. (2022). The effectiveness of investment projects in development of innovative activities of enterprises. European Business Management, 8(3). Haydarov O‘.A. Milliy iqtisodiyot doirasida investitsiya faoliyatini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish yo‘llari., Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2020.-26 b.; Naimov Sh.Sh. O‘zbekiston respublikasining investitsiya salohiyatini oshirish istiqbollari. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent. 2024.-28 b.

tadbirlar majmuini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasidagi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarining xususan, "Olmaliq kon-metallurgiya jamiyati" aksiyadorlik jamiyatining investitsiya faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligi oshishi munosabati bilan yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada retrospektiv tahlil, mantiqiy va modellash usullari, tahlil va sintez, me'yoriy yondashuv, tizimli va qiyosiy tahlil, entropiya tahlili, omilli tahlil, SWOT-tahlil, vaziyatni o'rganishning o'ziga xos usullari, statistika va ekonometrika, xususan, korrelyatsiya-regressiya va variatsiya tahlillari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qat'iy foizli korporativ obligatsiyalarni xarid qobiliyatini inobatga olgan holda uzoq muddatli «kam sarmoya kiritish» (C_i^{min}) va «yuqori sarmoya kiritish» (C_i^{max}) usullariga ajratish asosida muomalaga chiqarish va qimmatli qog'ozlar bozorida ochiq joylashtirish orqali aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish taklifi ishlab chiqilgan;

korporativ boshqaruvning turli modellari uchun xos bo'lgan "yuqori" (60-100 foizgacha), "o'rta" (30-59 foizgacha) hamda "past" (0-29 foizgacha) balli tizim asosida konservativ dividend siyosatlarini tanlash orqali aksiyadorlik jamiyatlari dividend siyosati samaradorligini oshirish asoslangan;

aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini integral baholash mezonlari investitsion jozibadorlik qiymatining "yuqori darajada jozibadorlik" ($IJ \geq 0,7$), "o'rtacha darajada jozibadorlik" ($0,4 \leq IJ < 0,7$), "past darajada jozibadorlik" ($IJ < 0,4$) chegaralarida kapital oqimlarini boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashi asoslangan;

aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya faoliyati darajasini aks ettiruvchi miqdoriy baholash hisobot davri uchun aktivlar qiymatining o'sishi hamda operatsion faoliyatning pul oqimiga nisbati orqali aniqlash tartibini joriy asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya jozibadorligining mazmuni va ahamiyatining nazariy va uslubiy jihatlari ochib berilgan;

o'sish omillari va aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya jozibadorligini baholash usullari aniqlangan;

aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya jozibadorligini oshirish sohasidagi xorijiy davlatlar tajribasi tizimlashtirilgan va investitsiya jozibadorlikning miqdoriy chegaralari va sifat ko'rsatkichlarini o'lchashning asosiy xorijiy usullari tahlil qilingan;

investitsiya jozibadorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha institutsional muhitda asosiy islohotlar shakllantirilgan va O'zbekistonga mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya resurslaridan foydalanishning hozirgi holati tahlil qilingan;

O'zbekiston hududlarining investitsiya jozibadorligini shakllantirish va rivojlantirish omillariga baho berilgan;

iqtisodiy o'sish, hududdagi takror ishlab chiqarish jarayoni nuqtai nazaridan milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish samaradorligi va maqsadga muvofiqligini aniqlash maqsadi bo'lgan mahalliy lashtirish va ixtisoslashuv koeffitsientlarini hisoblash asosida tahlil amalga oshirilgan;

aksiyadorlik jamiyatlarining va umuman O'zbekistonning iqtisodiy o'sishiga to'sqinlik qiladigan hududlarda investitsiya jozibadorligini shakllantirish va oshirishning eng muhim muammolari aniqlangan;

O'zbekiston hududlarining investitsiya jozibadorlik darajasiga ko'ra reytingi va tasnifi amalga oshirilgan;

O'zbekiston hududlarida iqtisodiy afzalliklarning geografik kontsentratsiyasi dinamikasi kuzatib borilgan;

aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarni o'zlashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborot bazasi rasmiy manbalardan olinganligi, xulosalar, taklif va tavsiyalar sinovdan o'tkazilganligi, olingan natijalarning iqtisodiy nazariyalarga muvofiqligi, shuningdek, ularning vakolatli vazirliklar va idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy xulosalar va tavsiyalardan aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya jozibadorligini oshirishga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlarining nazariy-uslubiy asoslarini kengaytirish, investitsiya resurslari bozorini isloh qilishning maqsadlari va ustuvorliklarini aniqlash, aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya jozibadorligini boshqarish samaradorligini oshirish uchun to'g'ri yo'nalishni, shuningdek, kapital qo'yilmalarni samarali jalb qilish sohasida iqtisodiy rivojlanishning davlat siyosati maqsadlariga erishish strategiyasini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy tavsifdagi xulosalar va takliflardan O'zbekiston Respublikasidagi aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya jozibadorligini oshirish mexanizmlarini, investitsiyalar sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishning strategik yo'nalishlarini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish, aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya jozibadorligini tamoyillaridan foydalanish orqali investitsiya siyosatini yanada takomillashtirish, tuzilgan ko'p omilli model asosida investitsiya resurslarini jalb qilgan holda iqtisodiy faoliyat stsenariylarini prognoz qilish, aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya jozibadorligini oshirish uchun zarur bo'lgan omillarni aniqlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya faolligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar asosida:

qat'iy foizli korporativ obligatsiyalarni xarid qobiliyatini inobatga olgan holda uzoq muddatli «kam sarmoya kiritish» (C_i^{min}) va «yuqori sarmoya kiritish»

(C_i^{max}) usullariga ajratish asosida muomalaga chiqarish va qimmatli qog'ozlar bozorida ochiq joylashtirish orqali aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish taklifi "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan ("Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil maydagi SL-428-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi aksiyadorlik jamiyati tomonidan amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda diversifikatsiyalash imkonini bergan hamda 2025-yilda 2024-yilga nisbatan 7,8 foizga o'sishga erishilgan;

korporativ boshqaruvning turli modellari uchun xos bo'lgan "yuqori" (60-100 foizgacha), "o'rta" (30-59 foizgacha) hamda "past" (0-29 foizgacha) balli tizim asosida konservativ dividend siyosatlarini tanlash orqali aksiyadorlik jamiyatlari dividend siyosati samaradorligini oshirish taklifi "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan ("Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil maydagi CL-428-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida mazkur amaliyot orqali aksiyadorlik jamiyatlariga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi 2025-yilda 2024-yilga nisbatan 15 foizga o'sishiga erishilgan;

aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini integral baholash mezonlari investitsion jozibadorlik qiymatining "yuqori darajada jozibadorlik" ($IJ \geq 0,7$), "o'rtacha darajada jozibadorlik" ($0,4 \leq IJ < 0,7$), "past darajada jozibadorlik" ($IJ < 0,4$) chegaralarida kapital oqimlarini boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash taklifi "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan ("Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil maydagi CL-428-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida investor uchun muhim bo'lgan barcha ichki va tashqi omillarni hisobga olishdagi baholashning aniqligini oshirishga va investitsiya qarorlarini qabul qilishda xavflarni kamaytirishga yordam bergan;

aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya faoliyati darajasini aks ettiruvchi miqdoriy baholash hisobot davri uchun aktivlar qiymatining o'sishi hamda operatsion faoliyatning pul oqimiga nisbati orqali aniqlash tartibini joriy asosida takomillashtirish taklifi "Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ tomonidan amaliyotga joriy etilgan ("Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil maydagi CL-428-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya faoliyati darajasini aks ettiruvchi aniqlik bilan ishlash uchun tizim yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferentsiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan 5 ta respublika va 5 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 166 betni tashkil etadi.